

**HAMIDOVA MUHAYYOXON OBIDOVNA**

**IQTIDORLI TALABALARNING  
ILMIY-IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL  
ETISH VA NAZORAT QILISH  
(uslubiy ko'rsatma)**

**NAMANGAN-2023**

**HAMIDOVA MUHAYYOXON OBIDOVNA**

**“IQTIDORLI TALABALARNING ILMIY-IJODIY  
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA NAZORAT QILISH  
(uslubiy ko‘rsatma)**

**Namangan-2023**

**Muallif:** filologiya fanlari nomzodi, professor  
Hamidova Muhayyoxon

**Taqrizchilar:** p.f.n., dotsent N.Uluxujayev

PhD M.Muhammadaliyeva

“Iqtidorli talabalarning ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish” nomli uslubiy ko‘rsatma Boshlang‘ich ta‘limda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi kafedrasida yig‘ilishining 2023-yil 28-avgustdagi 1-sonli yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan.

“Iqtidorli talabalarning ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish” nomli uslubiy ko‘rsatma Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakultetining 2023-yil 28-avgustdagi 1-sonli kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan.

Mazkur uslubiy ko‘rsatma Namangan davlat universiteti O‘quv-uslubiy Kengashida 2023- yil 20-sentabrda o‘tkazilgan yig‘ilishida 1-bayonnoma bilan muhokama qilingan va nashr etishga tavsiya etilgan.

**M.Hamidova.**

Iqtidorli talabalarning ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish (uslubiy ko‘rsatma).- Namangan, 2023.- 40 b.

©Namangan davlat universiteti

## SO‘Z BOSHI

“Agar kelajagimizni o‘ylab ish qilmoqchi bo‘lsak, kelajakda ishimizni davom ettiradigan bugungi kun yoshlarimizga sharoit yaratib, uning hayoti haqida qayg‘uradigan bo‘lsak, avvalo, mahalliy yoshlarni tarbiyalash ishiga munosabatimizni mutlaqo o‘zgartirishimiz kerak. Mumkin qadar ko‘proq iqtidorli yoshlarimizni ittifoqning eng ilg‘or korxonalariga, shular jumlasidan, hatto xorijiy mamlakatlarga, kerak bo‘lsa, yangi texnologiya, yangicha ish tashkil qilishni o‘rganish uchun Yaponiya, Amerika hamda boshqa joylarga yuborib, ularning o‘qishiga, tajriba orttirishiga imkoniyat yaratish lozim. Iqtisodimizni, hayotimizni o‘zgartirish ana shularga bog‘liq. Agar shuni qilmasak, bu yurishimizda katta yo‘lga chiqishimiz qiyin bo‘ladi.

Aytish kerakki, kadrlarni puxtaroq qilib tayyorlamasdan turib, ularning qadriga yetmasdan turib, ularga ishonmasdan va qo‘llab quvvatlamasdan, o‘ylayman-ki, biron-bir sohada ahvolni hech qanaqa tarzda o‘zgartirib bo‘lmaydi”,-deb O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ma`ruzalarida ta`kidlab o‘tgan fikri bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Yurtboshimizning ushbu fikrlaridan kelib chiqqan holda iste`dodli yoshlarni, shuningdek, iqtidorli talabalarni tanlash, ular bilan samarali ishlash yo‘llarini ishlab chiqish lozimdir. Buning uchun quyidagi reja asosida ish olib borish maqsadga muvofiqdir:

Reja:

1. Layoqatlar, qobiliyatlar va iste`dod.
2. Qobiliyatli va iste`dodli bolalarni saralash masalalari.
3. Qobiliyatli va iste`dodli yoshlarning ta`lim muammolari.

Barcha xatti-harakatlarimizning asosida anglangan, ba`zan esa anglanilmagan motivlar yotadi. Motivlarning turlaridan biri layoqatlardir. Yorqin shakllangan layoqatlar faoliyatga intilganlik bilan o‘zini namoyon qiladi. Kishi u yoki bu faoliyatni ko‘proq yoqtirsa, u yoki bu faoliyatni tanlasa, shu faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishni ich-ichidan istab, xohlab tursa, biz bu kishini layoqatli deb ataymiz. Demak, layoqatlar faoliyatni o‘rganish, uni o‘zlashtirishga intilish

bo'limb, dastlab anglanilmagan motiv hisoblanadi va alabttta, ushbu faoliyatga havas, zavq bilan erishish, o'zzlashtirishga undaydi, kishiga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi. Shu sababli bajarayotgan faoliyatda u charchamaydi, zerikmaydi.

Qobiliyatlar, shubhasiz, aksariyat paytda layoqatlar asosida shakllanadi va biron bir faoliyatni ongli o'zlashtira olishida namoyon bo'ladi. Lekin uning ta'rifida yana bir nozik tomoni bor. Qobiliyatlar deb faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish imkoniyatlarini beruvchi xususiyatlarga aytiladi. Ya'ni muvaffaqiyatli bajarishning o'zi hali qobiliyat emas, bu gap qobiliyatlardan darak berishi mumkin. Lekin qobiliyat bo'la olmaydi. Qobiliyat deb muvaffaqiyatni ta'minlaydigan imkoniyatlarga aytiladi. Aynan imkoniyatlar faoliyatda rivojlanishi, takomillashuvi mumkin. Shuningdek, imkoniyatlar u yoki bu faoliyatni yengil, oson va tez o'zlashtirishni ta'minlaydi. Bundan, shubhasiz, bajaruchining o'zi ruhlanadi va o'z faoliyatini tobora takomillashtirib boradi, shu sohaning ustasiga aylanadi. Demak, qobiliyatli kishi bilimdon, keng qamrovli, qo'lidan har xil ish kelishi, har xil amaliy va aqliy faoliyatni zukkolik bilan o'rgana olishi ana shundandir.


Shu sababli, har qanday qobiliyatlar, u qanchalik murakkab o'ziga xoslik bo'lmasin, albatta ijtimoiy muhit qadriyatlarini bilan baholanadi. Aynan shu muhit qadrlagan qobiliyatlar jamiyatda ko'proq rivojlanishi kuzatiladi. Qobiliyatlarning tashxisi layoqatlardan ko'ra osonroq. Chunki qobiliyat faoliyatda namoyon bo'ladi va rivojlanadi.

Iste'dod esa ko'p qirrali va juda rivojlangan qobiliyatlar majmuasidir. Ushbu ta'rifdan kelib chiqib tasavvur qiladigan bo'lsangiz, iste'dodli kishilar kamdan kam uchraydi. To'g'ri, iste'dodli kishi, o'z nomi bilan nodir kishidir, uning o'ziga xos, boshqalarga o'xshamaydigan xislatlari ko'p. Lekin hayotda, ayniqsa, pedagogik faoliyatda iste'dod so'zi yengil va ancha keng ishlatiladi. Uni pedagogik ma'noda iqtidor so'zi bilan almashtirilishi tasodif emas. Chunki iqtidor so'zi tarixan yerli, boy-badavlat, bir narsasi bor kishiga, endilikda esa bilimdon kishiga aylanmoqda. Demak, iqtidor deganda biz a'lochi, yaxshi o'qiydigan, bilimdon, faol o'quvchilarni ko'z oldimizda gavdalantiramiz.

Iste`dod, shunday qilib, qobiliyatlar majmuasi, o`ta rivojlanganlik holati bilan ajralib turib, avvalo, o`zlashtira olish tezligi, zukkologi, xushyorligi bilan tavsiflanadi.

Iste`dod birinchi navbatda o`z yo`nalishiga ega bo`ladi. Yo`nalish turlarini sanab o`tish qiyin, chunki har bir iste`dod sohibining o`ziga xos iste`dod yo`nalishi bor, u qaytarilmasdir. Inson psixikasining boshqa ko`rinishlarini tabaqalaganlaridek, iste`dodning ham umumiy ko`rinishlarini quyidagi guruhlarga yoki turlarga birlashtiradilar:

- Aqliy (intellektual) soha iste`dodi.
- San`at sohasi iste`dodi.
- Muloqot yoki boshqaruv soha iste`dodi.
- Amaliy soha yoki sport sohasi iste`dodi.



Ko`rinib turganidek, har bir soha o`zining keng qamrovliligi bilan ajralib turadi va har bir turning ichida yanada kichikroq yo`nalishlarni farq qilish mumkin. Bundan tashqari boshqacha asosga ega bo`lgan tabaqalash turlari ham taklif etilgan.

Demak, iste`dodda ma`lum bir xil ko`rinish yo`q. Iste`dod juda ko`p xilma-xillikda namoyon bo`ladi va u qanchalik nodir bo`lsa, shunchalik o`ziga xos, takrorlanmasdir.

Shu jihatdan iste`dodli kishining shaxsiy xislatlarining o`ziga xos tomonlarini ko`rib chiqish maqsadga yondoshishga yordam beradi. Jumladan,

A.M.Matyushkin iborasi bilan aytilsa, ijodiy iste`dod tarkibining rivojlanishida shaxsning integral xususiyatlarining eng muhimlaridan quyidagilarni farq qilish mumkin.

1. Bilish motivlarining boshqa motivlardan ustunligi.
2. Voqea va hodisalarga sezgirligi, nozik did bilan o`xshash voqealarda farqni, har xil narsalarda o`xshashlikni ko`ra olish, payqay olish, yangilikni ko`ra olish, tadqiq etish, o`rgana olish, masala, muammoni qo`ya olish, ijodiy yondosha olish.
3. Original xulosalar, fikrlarga kela olish, takrorlanmas, o`ziga xos fikr-mulohaza, nazarlarga kela olish.
4. Voqea va hodisalarning oqibatini, kelajagini tez va aniq tasavvur qila olish, oldindan bashorat qila olish, chuqur tahlil asosida jarayon va voqealarning oqibatini nazorat qila olish, oqibatini asosli bashorat qila olish.
5. Har bir voqea va hodisalar haqida yorqin idealga yaqin etalon tasavvurlarga ega bo`lish va shu tasavvur va nazarlar orqali axloqiy, ilmiy, aqliy-intellektual, milliy, badiiy baholar, talqinlar bera olish.

Bilish  
motivlarining  
boshqa  
motivlardan  
ustunligi


Voqea va hodisalarga sezgirligi,  
nozik did bilan o'xshash  
voqealarda farqni, har xil  
narsalarda o'xshashlikni ko'ra  
olish, payqay olish, yangilikni  
ko'ra olish, tadqiq etish, o'rgana  
olish, masala, muammoni qo'ya  
olish, ijodiy yondosh olish

Original  
xulosalar,  
fikrlarga kela  
olish,  
takrorlanmas,  
o'ziga xos  
fikir-  
mulohaza,  
nazarlarga  
kela olish

Shaxsning integral  
xususiyatlari

Har bir voqea va  
hodisalar haqida  
yorqin idealga yaqin  
etalon tasavvurlarga  
ega bo'lish va shu  
tasavvur hamda  
nazarlar orqali  
axloqiy, ilmiy,  
aqliy-intellektual,  
milliy, badiiy  
baholar, talqinlar  
era olish

Voqea va hodisalarning  
oqibatini, kelajagini tez va aniq  
tasavvur qila olish, oldindan  
bashorat qila olish, chuqur tahlil  
asosida jarayon va voqealarning  
oqibatini nazorat qila olish,  
oqibatini asosli bashorat qila  
olish





Ijodiy iste'dod uchun zarur bo'lgan bu kabi integral shaxs xususiyatlari kishini ham ma'naviy jihatdan, ham aqliy zakovat tomondan uzoqni ko'ra biladigan, keng dunyoqarashli, sabr-toqatli, kechirimli, olijanob inson qiladi. Bunday ichki ma'naviy dunyosi boy, zukko odamning shakllanishida bevosita tashqi ma'naviy muhitning roli katta. Shu bilan birga ijodiy iste'dod sohibining ungagina xos bo'lgan layoqatlar, qobiliyatlar va ayniqsa, qobiliyatlarning yorqin shakllangan, rivojlangan ko'rinishlari bo'lmasa, muhitning o'zigina kishini ulkan ijodiy yutuqlarga olib kelmaydi. Ijodiy iste'dodning mazmuni shundaki, oliy darajadagi ijod uchun albatta shakllangan, ko'p qirrali qobiliyatlar, iste'dod asos bo'lishi kerak.

Layoqatlarning bevosita psixologik tashxisi yo'q. Layoqatlarning aniq tashxisi miya faoliyatining o'ziga xos integral xususiyatlari orqali, ya'ni EEG metodlari orqali amalga oshirilishi mumkin. Layoqatlarni aniqlash qobiliyatlarni barvaqt aniqlash demakdir. Shu sababli zarur sharoitda EEG usulida layoqatlarni barvaqt aniqlash imkoniyati bor, masalan 10-11 yoshdan boshlab. Lekin amalda ko'proq qobiliyatlar tashxis qilinadi. Bunga sabab bolada u yoki bu qobiliyat bor bo'lsa o'sha sohadagi faoliyatni tez, yengil va muvaffaqiyatli bajara oladi.

Psixologik testlar aslini olganda odam hayotida bajaradigan faoliyat turlarining umumlashtirilgan modeli hisoblanadi.

Psixologik va pedagogik testlarning mohiyati, ularning farqi. Ta'lim muassasalari, ta'lim metodlari va ularning amaliy ahamiyati. Mustaqil ta'limning roli. Ustoz va shogird munosabatlarining iste'dod masalasiga aloqadorligi.

Iqtidorli talabalar uchun quyidagi hujjatlar tayyorlanishi kerak bo'ladi:

1. Ariza (kafedra mudiri nomiga).
2. Ilmiy rahbarning rozilik xati.
3. Obyektivka (ma'lumotnoma).
4. Tarjimai hol.
5. Pasport nusxasi.
6. Talabalik guvohnomasi nusxasi.
7. Reyting daftarchasidan ko'chirma.

8. Maqolalar ro'yxati.
9. Ijodiy ishlardan namunalar.
10. Telefon raqami (shaxsiy va uy).
11. Yuqorida keltirilgan hujjatlarning elektron varianti.

Demak, iqtidorli talabaning hujjatlar jildida yuqorida ko'rsatib o'tilgan hujjatlar bo'lishi kerak.

Shuningdek, iqtidorli talabalar bilan quyidagi tarzda ishlar olib borishni rejalashtirish kerak:

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

### **OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

---

#### **NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

#### **MAKTABGACHA, BOSHLANG'ICH TA'LIM VA JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI**

**Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 3-kurs, BTS-BU-21-guruh talabasi talabasi**

**Mo'minova Durdonasaida'zamxonqizi**

**ilmiy ish faoliyati**

## **R E J A S I**

**Namangan - 2023**

1. Yo‘nalishi: Boshlang‘ich ta‘lim
2. Ilmiy rahbar: filologiya fanlari nomzodi, professor Hamidova  
Muhayyoxon Obidovna
3. Biriktirilgan kafedra: Boshlang‘ich ta‘limda ijtimoiy-gumanitar fanlarni  
o‘qitish metodikasi
4. Tadqiqot ishi mavzusi: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga badiiy asarni  
lingvistik modellashtirishga o‘rgatish (Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlari misolida)
5. Aloqa uchun: uyali telefon: +998937020947

## ASOSNOMA

**Mavzu:** Boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy asarni lingvistik modellashtirishga o'rgatish (Xudoyberdi To'xtaboyev asarlari misolida)

**1.Mavzuning dolzarbligi.** Boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy asarni lingvistik modellashtirishga o'rgatish (Xudoyberdi To'xtaboyev asarlari misolida) ga erishish mumkin.

**Tadqiqotning maqsadi.** Asosiy maqsad boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy asarni lingvistik modellashtirishga o'rgatish (Xudoyberdi To'xtaboyev asarlari misolida) yo'llarini tahlil etish. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- Boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy asarni lingvistik modellashtirishga o'rgatish (Xudoyberdi To'xtaboyev asarlari misolida) darslarini birma-bir tahlil qilish;

-modellashtirish xususida tushuncha berish;

- Boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy asarni lingvistik modellashtirishga o'rgatish (Xudoyberdi To'xtaboyev asarlari misolida) ni tushuntirish;

**Tadqiqot obyekti:** Boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy asarni lingvistik modellashtirishga o'rgatish (Xudoyberdi To'xtaboyev asarlari misolida) jarayoni.

**Tadqiqot predmeti:** Boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy asarni lingvistik modellashtirishga o'rgatish (Xudoyberdi To'xtaboyev asarlari misolida) ning mazmuni, shakli va usullari.

**2. Tadqiqot gipoteziasi:** Yangi pedagogik texnologiyalardan unumli va o'rinli foydalanib, tadqiqotni o'quv faoliyatida qo'llash.

**3.Tadqiqotning vazifalari:** O'quv darsligidagi bir mavzuni tanlab olish va tanishtirish.

- 1) Tadqiqot muammosi nimada ekanligini tushuntirib berish;
- 2) tadqiqot metodini anglash;
- 3) o'quvchilar o'rtasida tajriba o'tkazish;
- 4) tajriba natijasini baholash;

5) tadqiqot natijalarini xulosalash;

#### **4.Tadqiqot uslublari:**

Savol – javob.

Suhbat.

**Tadqiqotning metodologik asosi:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning milliy g‘oya va mafkuraga, ta‘lim samaradorligini oshirishga doir ma‘ruzalari, asarlari, farmonlari, qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta‘lim to‘g‘risida” gi Qonun hamda “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta‘lim tizimining Davlat ta‘lim standartlari, Vazirlar Mahkamasining ta‘lim to‘g‘risidagi me‘yoriy hujjatlari tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi.

**Tadqiqot metodlari.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga badiiy asarni lingvistik modellashtirishga o‘rgatish (Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlari misolida) da interaktiv metodlardan, muammoli vaziyatlardan foydalanish mumkin. Interaktiv maetodlar mavzuga mos keluvchi turli grafikli organayzerlardan, “Akvarium”, “Bumerang”, “Gugurt donalari”, “Rezyume”, “Rotatsiya”, “Swot-tahlil”, “Skarabey”, “Sindikat”<sup>1</sup> kabi strategiyalarni o‘quvchilarning yoshiga moslab foydalanish mumkindir. Bu esa, ta‘lim jarayonini jadallashtirishga, o‘quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash, jamoa bilan ishlash, muloqatga erkin kirisha olish, o‘z-o‘zini baholash, xushfe‘llik, tanqidiy fikrlash, oqilona qarorlar qabul qilish, egallangan bilimlarni amalda qo‘llash kabi sifatlarni qaror toptirishga ko‘maklashadi; o‘qituvchi uchun esa o‘quvchilarning barchasini baholash hamda vaqtdan unumli foydalanish imkonini yaratib beradi. Bundan tashqari savodxonligini oshirish, lug‘at boyligini boyitish, tadqiqotning muammosiga oid tarixiy, falsafiy, etnografik, san‘atshunoslikka oid, shuningdek, pedagogik, psixologik va metodik manbalarni o‘rganish va tahlil etish uchun ham muhim rol o‘ynaydi.

---

<sup>1</sup> Ro‘ziyeva D. va boshqalar Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanishi. -Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.

**Tadqiqotga yangicha yondashuvlar va erishilgan natijalar.** Ushbu tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy asarni lingvistik modellashtirishga o'rgatish (Xudoyberdi To'xtaboyev asarlari misolida) masalasiga yangicha, bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda yondashib, uni amalga oshirishda predmetlarning mazmunlarini o'rganib, o'xshash va farqli jihatlarini topib, ularni o'zaro aloqadorligini, bog'liqlik tomonlarini boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshiga moslab integratsiya qilishga e'tiborni qaradik. Bu esa o'z navbatida darslarni bog'lashda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, barkamol avlod tarbiyasida o'zbek xalq pedagogikasining, milliy merosimizni, qadriyat va an'analarimizni ta'limga joriy etilishi, milliy g'urur g'oyalarini to'laqonli shakllantirish imkoni tug'iladi.

**5. Tadqiqotning nazariy ahamiyati:** Tadqiqot o'tkazish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy asarni lingvistik modellashtirishga o'rgatish (Xudoyberdi To'xtaboyev asarlari misolida) ni ishlab chiqishga zamin yaratish.

**6. Tadqiqotning amaliy ahamiyati:** Birinchi navbatda o'quvchining o'zini anglay olishi va harakatlarini to'g'ri baholay olishi. O'quv faoliyatidagi jarayonda mustaqil fikrlashishi.

**7. Tadqiqot bazasi:** Boshlang'ich sinf o'quvchilari **Hisobot shakli va davri:** Konferentsiyalarga maqolalarni tayyorlash

## **Kalendar reja:**

### **2021-yil**

Sentabr: Ilmiy-tadqiqot mavzusini tasdiqlash.

Oktabr: Ilmiy-tadqiqot mavzusiga oid adabiyotlar bilan tanishish.

Dekabr: Ilmiy-tadqiqot mavzusiga oid adabiyotlar ro'yxatini tuzish va to'plash.

Yanvar: Ilmiy-tadqiqot mavzusiga oid ilmiy maqola nashr etish.

Mart: Ilmiy-tadqiqot ishining kirish qismini yozish.

Aprel-May: Ilmiy-tadqiqot ishiga doir maqola tayyorlash va nashr ettirish.

### **2022-yil**

Sentabr: Ilmiy-tadqiqot ishining birinchi bobiga oid adabiyotlar bilan ishlash.

Oktabr: Ilmiy-tadqiqot ishining birinchi bobini yozish.

Noyabr: Ilmiy-tadqiqot ishining birinchi bobinining 1-qismini yozish.

Dekabr: Ilmiy-tadqiqot ishining birinchi bobinining 2-qismini yozish.

Yanvar: Ilmiy-tadqiqot ishiga oid ilmiy maqola nashr etish.

Mart: Ilmiy-tadqiqot ishining birinchi bobinining 3-qismini yozish.

Aprel-may: Birinchi bob uchun xulosa yozish.

### **2023-yil**

Sentabr: Ilmiy-tadqiqot ishining ikkinchi bobiga oid adabiyotlar bilan ishlash.

Oktabr: Ilmiy-tadqiqot ishining ikkinchi bobini yozish.

Noyabr: Ilmiy-tadqiqot ishining ikkinchi bobinining 1-qismini yozish.

Dekabr: Ilmiy-tadqiqot ishining ikkinchi bobinining 2-qismini yozish.

Yanvar: Ilmiy-tadqiqot ishiga oid ilmiy maqola nashr etish.

Mart: Ilmiy-tadqiqot ishining ikkinchi bobinining 3-qismini yozish.

Aprel-may: Ikkinchi bob uchun xulosa yozish.

### **2024-yil**

Sentabr: Ilmiy-tadqiqot ishining uchinchi bobiga oid adabiyotlar bilan ishlash.

Oktabr: Ilmiy-tadqiqot ishining uchinchi bobini yozish.

Noyabr: Ilmiy-tadqiqot ishining uchinchi bobinining 1-qismini yozish.

Dekabr: Ilmiy-tadqiqot ishining uchinchi bobinining 2-qismini yozish.

Yanvar: Ilmiy-tadqiqot ishiga oid ilmiy maqola nashr etish.

Mart: Ilmiy-tadqiqot ishining uchinchi bobinining 3-qismini yozish.

Aprel: Uchinchi bob uchun xulosa yozish.

May: Ilmiy tadqiqot ishiga xulosa yozish va kafedrada dastlabki himoyadan o'tkazish.

Iyun: Ilmiy tadqiqot ishini himoya qilish.



**Iqtidorli talabalar bilan ishlash rejasidan namuna:**

**Namangan davlat universiteti**

**Maktabgacha, boshlang'ich ta'lim va jismoniy madaniyat fakulteti**

**“Boshlang'ich ta'limda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi”**

**kafedrasining iqtidorli talabalar bilan ishlash**

**R E J A S I:**

**2021-2024-yillar**

<b>№</b>	<b>Bajariladigan ishlar</b>	<b>Mas`ul shaxslar</b>
1	Iqtidorli talabalarni tanlash.	professor-o'qituvchilar
2	Iqtidorli talaba haqidagi ma`lumotlarni tayyorlash.	Professor-o'qituvchilar va talabalar
3	Iqtidorli talabalar bilan ishlash rejalarini tayyorlash va uni tasdiqlash.	Kafedra mudiri va professor-o'qituvchilar
4	Iqtidorli talabalarni universitet iqtidorli talabalar uchun tashkil etilgan darslarda qatnashishlari va sinov imtihonlarini topshirishlarini ta`minlash.	Kafedra mudiri va professor-o'qituvchilar
5	Iqtidorli talabalarni ilmiy maqolalar tayyorlashlari va chop ettirishlarini ta`minlash hamda uslubiy tavsiyalar berish.	Professor-o'qituvchilar va talabalar
6	Bajarilgan ishlar yuzasidan yillik hisobot topshirish.	Kafedra mudiri va professor-o'qituvchilar

**Kafedra mudiri:**

**R.Lutfetdinova**

Namangan davlat universiteti Maktabgacha, boshlang'ich ta'lim va jismoniy madaniyat fakulteti talabasi BTS-BU-21-guruh talabasi Mo'minova Durdon Saida'zamxon qizining "Boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy asarni lingvistik modellashtirishga o'rgatish (Xudoyberdi To'xtaboyev asarlari misolida)" mavzusidagi ilmiy ishini amalga oshirish bo'yicha kalendar ish

## R E J A S I

№	Bajarilishi rejalashtirilgan ishlarmazmuni	Bajarilish Muddati	Kutilayotgan natija	Izo h
1	Mavzuga kirish. Mavzurejasi ustida ishlash	2023-yil	Mavzular asosida izlanadi. Adabiyotlar jamlanadi.	
2	Mavzuga oid adabiyotlarni o'qish.	2023-yil	Adabiyotlardan zamonaviy ta'lim metodlarini o'rganish.	
3	Mavzuga oid adabiyotlarni ahlili	2023-yil	Universitet miqyosida va boshqa kutubxonalarda.	
4	Mavzuning nazariy qismini ustida ishlash	2024-yil	Universitet miqyosida va xalqaro matbuotda.	
5	Mavzu asosida maqola tayyorlash va chop ettirish.	2024-yil	Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish.	

**Kafedra mudiri:**

**R.Lutfetdinova**

**Ilmiy rahbar:**

**M.Hamidova**

**Iqtidorli talaba:**

**D.Mo'minova**

# ASOSNOMA

**Mavzu:** Boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy asarni lingvistik modellashtirishga o'rgatish (Xudoyberdi To'xtaboyev asarlari misolida)

**Mavzuning dolzarbligi:** Boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy asarni lingvistik modellashtirishga o'rgatish (Xudoyberdi To'xtaboyev asarlari misolida) bo'yicha ko'nikma va malakalarini o'stirishning zamonaviy usullarihaqida tushuncha paydo qilish

**Tadqiqot predmeti:** Boshlang'ich sinf o'qishsavodxonligi

1. **Tadqiqotning maqsadi:** Boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy asarni lingvistik modellashtirishga o'rgatish yo'llarini amalga oshirish.

2. **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:** Boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy asarni lingvistik modellashtirishga o'rgatishning samarali metod va usullarini ishlab chiqish.

3. **Tadqiqotning amaliy ahamiyati:** Kelajakda ushbu ishdan maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'qish savodxonligi darslarida foydalanishlari mumkin.

**Boshlang'ich ta'limda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi**  
**kafedrası professori, f.f.n.Hamidova Muhayyoxon**  
**Obidovnaning iqtidorli talabalar bilan ishlash**  
**R E J A S I**

<b>№</b>	<b>Amalga oshiriladigan ishlar mazmuni</b>	<b>Vahti</b>	<b>Mas'ul shaxs</b>
1	Fakultet va yo'nalish iqtidorli talabalarini aniqlash.	Sentabr	M.Hamidova
2	Tanlangan iqtidorli talaba bilan suhbat.	Sentabr	M.Hamidova
3	Iqtidorli talabaga kerakli topshiriqlarni berish.	Sentabr	M.Hamidova
4	Iqtidorli talaba bilan fan bo'yicha maqolalar tayyorlash.	Yil davomida	M.Hamidova
5	Iqtidorli talaba bilan yakka tartibda ishlash.	Yil davomida	M.Hamidova
6	Iqtidorli talabaningnutqiysavodxonligini oshirish.	Yil davomida	M.Hamidova
7	Iqtidorli talabalar bilan birga matnustidaishlash	Noyabr	M.Hamidova
8	Iqtidorli talabaniprezidentmaktablaridagidarlarjarayonibilantanishtirish	Dekabr	M.Hamidova
9	Ilmiyadabiyotlar bilan ishlash	Yanvar,fevral	M.Hamidova
10	Universitet an'anaviyilmiy-amaliy anjumanigamaqola tayyorlash.	Mart	M.Hamidova
11	Iqtidorli talaba bilanommaviyaxborotvositalarixodimlaribilanushrashuvtashkilqilish	May	M.Hamidova

**Boshlang'ich ta'limda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi**  
**kafedrası professori, f.f.n.:** **M.Hamidova**

**Har bir iqtidorli talabada quyidagicha sinov daftarchasi bo'lishi kerak:**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY  
TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**IQTIDORLI TALABANING**

**SINOV DAFTARCHASI**

**Namangan-2023-yil**

**1. Familiyasi:** \_\_\_\_\_

**2. Ismi:** \_\_\_\_\_

**3. Otasining ismi:** \_\_\_\_\_

**4. Tug'ilgan yili:** \_\_\_\_\_

**5. Bitirgan o'quv dargohi:** \_\_\_\_\_

**6. Ilmiy rahbari:** \_\_\_\_\_

**7. Erishgan natijalari:** \_\_\_\_\_

**8. Fakultet, yo'nalishi:** \_\_\_\_\_

Talaba imzosi: \_\_\_\_\_

Fakultet dekanining imzosi: \_\_\_\_\_

Sinov daftarchasi ilmiy bo'limda saqlanishi shart.

**1-kurs**

1. Ilmiy rahbar: F.I.SH. \_\_\_\_\_

2. Tanlagan kursdagi sinov natijalari \_\_\_\_\_

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

3. 202\_\_\_\_ -yil yakuni

Talaba: \_\_\_\_\_

Fakultet dekani: \_\_\_\_\_ G‘.Abdullayev

**2-kurs**

1. Ilmiy rahbar: F.I.Sh. \_\_\_\_\_

2. Tanlagan kursdagi sinov natijalari \_\_\_\_\_

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

3. 202\_\_\_\_ -yil yakuni

Talaba: \_\_\_\_\_

Fakultet dekani: \_\_\_\_\_ G' .Abdullayev



**3-kurs**

1. Ilmiy rahbar: F.I.SH. \_\_\_\_\_

2. Tanlagan kursdagi sinov natijalari \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

3. 202\_\_\_\_ -yil yakuni

Talaba: \_\_\_\_\_

Fakultet dekani: \_\_\_\_\_ G' .Abdullayev

**4-kurs**

1. Ilmiy rahbar: F.I.SH. \_\_\_\_\_

2. Tanlagan kursdagi sinov natijalari \_\_\_\_\_

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

3. 202\_\_\_\_ -yil yakuni

Talaba: \_\_\_\_\_

Fakultet dekani: \_\_\_\_\_ G‘.Abdullayev

**Iqtidorli talaba bajaradigan ilmiy, uslubiy, nazariy ishlar RO'YXATI**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

Talaba: \_\_\_\_\_

Fakultet dekani: \_\_\_\_\_ G' .Abdullayev



Har bir kafedraning iqtidorli talabalar bilan ishlash Nizomi bo‘lishi shart.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**



**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**IQTIDORLI TALABALAR ILMIY-  
IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL  
ETISH TO‘G‘RISIDAGI  
NAMUNAVIY  
NIZOM**

**NAMANGAN – 2023**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

“Tasdiqlayman”

Namangan davlat universiteti  
Maktabgacha, boshlang‘ich ta‘lim  
va jismoniy madaniyat fakulteti dekani

\_\_\_\_\_ G‘.Abdullayev

2023 -yil “28” avgust

**IQTIDORLI TALABALAR ILMIY  
IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL  
ETISH TO‘G‘RISIDAGI  
NAMUNAVIY**

**NIZOM**

**NAMANGAN-2023**

**Namangan davlat universiteti iqtidorli talabalar ilmiy- ijodiy faoliyatini  
tashkil etish to'g'risidagi namunaviy Nizom fakultet Kengashining 2023-yil  
28.08. dagi yig'ilishida qabul qilingan.**

**Bayonnoma № 1**

**O'zbekiston respublikasi Oliy va  
o'rta maxsus ta'lim vazirligining  
2006 -yil "7 " avgustdagi  
PQ -436 son buyrug'iga 4-ilova**

Namangan davlat universitetida talabalar ilmiy-ijodiy  
faoliyatini tashkil etish to'g'risida namunaviy

**NIZOM**

**1.Umumiy qoidalar**

1. Ushbu namunaviy Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 7-avgustdagi "Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-436 son Qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, universitetda talabalarning ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish, ustoz-shogird tizimi asosida yoshlarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ilmiy-pedagog kadrlar zahirasini tayyorlashga doir tashkiliy, uslubiy, me'yoriy masalalarni o'zida mujassamlashtiradi.

2. Talabalarning ilmiy-ijodiy izlanishlarini tizimli asosda tashkillashtirish, har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish universitetning yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash borasidagi faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

3. Talabalarning ilmiy-ijodiy faoliyati talabalarni ilmiy tadqiqotlarga jalb etish, ularda ilmiy-tadqiqot ishlarini individual va jamoa bo'lib bajarish ko'nikmalarini shakllantirish hamda yoshlarning ilmiy- ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish orqali universitet bitiruvchilarining professional-kasbiy mahoratlarini yuqori darajaga ko'tarishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

4. Universitetda talabalarning ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etish ishlari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", Namangan davlat universitetining Ustavi va mazkur namunaviy Nizom asosida muvofiqlashtiriladi.



## **II. Talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatining maqsad va vazifalari**

5. Universitetda talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etishdan asosiy maqsad talabalarning ilmiy-texnikaviy hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish orqali kasbiy-ijodiy tayyorgarlik darajasini ko'tarish, ularni ilmiy-tadqiqotlarga jalb etish shakllarini mukammallashtirish, mavjud ilmiy maktablarni qo'llab-quvvatlash, yangilarini shakllantirish va rivojlantirish, o'quv-ta'lim jarayonida ilmiy-tadqiqotlar natijalaridan keng foydalanish mexanizmlarini shakllantirishdan iboratdir.

6. Talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etish hamda yosh ilmiy -pedagog kadrlar tayyorlash borasida universitetning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanishga xohishi va qobiliyati bo'lgan iqtidorli talabalarni aniqlash, ularni ilmiy tadqiqotlarga jalb etish, ilmiy-tadqiqot ishlarini individual va jamoa bo'lib bajarishga o'rgatish orqali ularni ilmiy-ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur tashkiliy, metodik va moddiy-texnikaviy shart-sharoitlar yaratish;

- universitetda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarida talabalarning keng ishtirokini ta'minlash, yoshlarning turli shakldagi ilmiy ijodini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini yaratish;

- kafedralar va fakultetlarda talabalarning ilmiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ro'yobga chiqarish imkonini beruvchi o'quv-ilmiy laboratoriyalar, markazlar, turli ilmiy-ijodiy to'garaklar tashkil etish;

- talabalarning o'quv mashg'ulotlari va ilmiy-tadqiqot ishlari integratsiyasini ta'minlash, mustaqil ish, kurs loyihasi, malakaviy bitiruv ishi, magistrlik dissertatsiyalari doirasida turli xildagi faol o'quv-tadqiqot jarayonlarini tashkil etish.

## **III. Talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etish shakllari**

7. Talabalar ilmiy-ijodiy faoliyati quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- o'quv rejalarda nazarda tutilgan tadqiqot ishlarining tashkiliy, moddiy-

texnik va uslubiy ta`minotini takomillashtirish orqali sifatini oshirib borish;

-ilmiy muammolar buyicha iqtidorli talabalar ishtirokida ilmiy guruhlar, laboratoriyalar, ilmiy to'garaklar, seminarlar va boshqa ilmiy-ijodiy uyushmalar tashkil qilish;

-turli manbalardan moliyalashtirilayotgan (davlat byudjeti, xo'jalik shartnomalari, chet el ilmiy grantlari va h.) ilmiy-tadqiqot loyihalarni amalga oshirishga talabalarni jalb qilish;

- kafedra, fakultet ilmiy-tadqiqot dasturlari doirasida professor-o'qituvchilarning bevosita ilmiy rahbarligi ostida talabalarning mustaqil ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish;

-ilmiy seminarlar, konferentsiyalar, simpoziumlar, talabalar ilmiy ishlari ko'rgazmasi, ta`lim yo'nalishlari va mutahassisliklari bo'yicha olimpiadalar hamda talabalar ilmiy-ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatini beruvchi turli tanlovlar tashkil etish;

-o'quv va ilmiy jarayonni kompyuterlashtirish, talabalarning zamonaviy uslublar va hisoblash texnikasi vositalaridan foydalanishni o'zlashtirishi uchun yagona axborot muhitini yaratish;

- ilmiy texnikaviy tadbirkorlarni va innovatsion biznesni o'rgatish maqsadida talabalarni ilmiy-texnologik parklar va boshqa innovatsion tuzilmalarga jalb etish.

8.Talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish maqsadida universitet:

- talabalarni universitetda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari va ularning natijalari bilan tanishib boradi, muassasa xususiyatidan kelib chiqqan holda ilmiy -tadqiqot ishlariga talabalarni jalb etish tizimini shakllantiradi;

- fakultetlar va universitet miqyosida olimpiadalar,talabalar ilmiy-tadqiqot ishlari tanlovi hamda ilmiy anjumanlarini tashkil etadi;

- talabalar ilmiy-ijodiy faoliyati natijalarini universitet, Respublika va chet el ilmiy jurnallari sahifalarida chop etish ishlarini shakllantiradi;

- tanlov asosida iqtidorli talabalarni aniqlaydi, ular ichidan eng bilimdon va

alohida iste'dod sohiblarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomdor Davlat stipendiyalariga, Respublika va chet el miqyosidagi turli tanlovlarga tafsiya etadi va muvofaqiyatli ishtirok etishlari uchun zarur tashkiliy uslubiy yordam ko'rsatadi;

- iqtidorli talabalar ilmiy-ijodiy qobiliyatlarini ruyobga chiqarish va rivojlantirish buyicha maxsus dasturlar ishlab chiqadi, ularni chet tillari, komp'yuter texnologiyalari, ixtisosliklar bo'yicha alohida o'quv kurslari, fakul'tativ mashg'ulotlar, yozgi lagerlar tashkil etadi;

-ilmiy kengash qaroriga muvofiq e'tiborga loyiq ilmiy natijalarga erishgan talabalarga qo'shimcha stipendiyalar belgilaydi va ularga rahbarlik qilgan professor o'qituvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantiradi.

#### **IV. Talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkillashtirish tamoyillari va mas'ullari**

9. Universitetda talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- ta'lim-tarbiya o'quv va ilmiy-tadqiqot jarayonlari integratsiyasini ta'minlash;

- o'quv-ta'lim jarayonini tashkillashtirishda talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatining turli shakllarini joriy etishni nazarda tutish hamda uning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash;

- talabalar ilmiy-ijodiy faoliyati ishtirokchilarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirishning turli shakllarini joriy etish;

- talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etishda universitet professor-o'qituvchilari, doktorant va aspirantlariga hamda soha mutahasislari va ilmiy – tadqiqot muassasalari xodimlarini keng jalb etish.

10. Talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish universitet ilmiy bo'limi, kafedralar, iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi, kichik akademiyalar, talabalar ilmiy jamiyatlari tomonidan amalga oshiriladi.

11. Universitet talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etish va ta'minlashga rektor, ilmiy ishlar bo'yicha prorektor, iqtidorli talabalar bilan ishlashga mutasaddi

xodim, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari mas`uldirlar.

## **V. Talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish**

12. Talabalar ilmiy ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishning asosiy shakllari quyidagilaridan iborat:

- talabalar ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini keng targ'ibot etish;
- ilmiy-ijodiy faoliyat bilan faol shug'ullanayotgan talabalarni turli jamg'armalar, tashkilotlar tomonidan tashkil etilayotgan stipendiyalarga tavsiya etish, faxriy yorliqlar, medallar, diplomlar bilan taqdirlash, turli mahalliy va chet-el talabalar ilmiy forumlarida qatnashish uchun safarlarga yuborish, aspiranturada tahsil olish yoki universitetni bitirgandan so'ng ishga joylashish uchun tavsiyalar berish;

- talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkillashtirish tizimida faol ish olib borayotgan mutasaddi xodimlar, kafedralar, laboratoriyalar, bo'limlar, ilmiy jamoalar, professor-o'qituvchilarni moddiy va ma'naviy taqdirlash.

13. Ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etayotgan talabalar, ilmiy to'garaklar va boshqa ilmiy-ijodiy uyushmalar a'zolari universitet o'quv va ilmiy bo'linmalarining jihozlari, laboratoriya uskunalari, hisoblash va boshqa texnik vositalardan, kommunikatsion xizmatlardan bepul foydalanadilar.

14. Tegishli kafedra tavsiyasiga binoan universitet Ilmiy kengashi qarori bilan talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatini rivojlantirishda salmoqli natijalarga erishayotgan, jumladan, talabalar ilmiy to'garaklariga rahbarlik qilayotgan, shogird talabalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi yoki nomdor Davlat stipendiyalari tanlovi g'olibi bo'lgan hamda rasmiy ravishda ilmiy rahbar sifatida kamida 2 nafar yosh iqtidorli talabanitayyorlagan professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamalari 1540 soatlik yillik yuklamaning umumiy hajmini saqlab qolgan holda 20% gacha kamaytirilishi mumkin.

15. Universitetda talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatiga tizimli asosida iqtidorli

talabalarni jalb etishga erishayotgan, “ustoz-shogird” tizimi asosida o’zining ilmiy maktabini yarat(ayot)gan, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashga salmoqli hissa qo’shib kelayotgan professor-o’kituvchilar muassasa Ilmiy kengash qarori bilan 100% gacha ustama haq bilan rag’batlantiriladi.

## **VI. Talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatini rejalashtirish va hisobotlar tayyorlash**

16. Universitet mustaqil ravishda o’zining mutahassislar tayyorlash ixtisosligidan hamda asosiy ilmiy yo’nalishlaridan kelib chiqqan holda talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish bo’yicha joriy va istiqbolli rejalarini ishlab chiqadi .

17. Talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish rejaları fakultet va universitet Ilmiy kengashlari tomonidan ko’rib chiqiladi va rektor yoki ilmiy ishlar bo’yicha prorektor tomonidan tasdiqlanadi .

Rejalarning bajarilish natijalari har kalendar yilning dekabr’ oyida Ilmiy Kengash tomonidan ko’rib chiqiladi .

18. Talabalar ilmiy-tadqiqot natijalari kafedra yig’ilishlarida, ilmiy seminarlarida va fakultet ilmiy kengashlarida doimiy muhokama qilib boriladi .

19. Universitet talabalar ilmiy-ijodiy faoliyati rejalarini bajarilishi va talabalar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlar yuzasidan Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan o’rnatilgan tartib va shakllarga muvofiq yillik hisobot topshirib boradi .

**Iqtidorli talabalar bilan  
ishlash bo’yicha mas’ul:**

**B.Abdurahmonov**





